

**MULTIMODAL DISKURSDA IT TERMINLARINING FUNKSIONAL VA  
KOMMUNIKATIV XUSUSIYATLARI**

*Mamatova Shaxnoza Hoshim qizi*  
*PhD talabasi, QarDU*  
*shaxnozamatova97@gmail.com*

**Annotatsiya.** Mazkur maqolada multimodal diskurs doirasida axborot texnologiyalari (IT) terminlarining funksional va kommunikativ xususiyatlari tahlil qilinadi. Tadqiqot Gunther Kress va Theo van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan multimodal diskurs nazariyasiga asoslanadi. Shuningdek, David Crystal hamda Nurtdinovning ishlari asosida IT terminlarning lingvistik xususiyatlari — internatsionallik, semantik ixchamlik va strukturaviy soddalik jihatlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, IT terminlar informativ, kognitiv va pragmatik funksiyalarni bajarish bilan birga, interaktivlik, global tushunarlilik va kontekstga bog‘liqlik kabi kommunikativ xususiyatlarga ham ega. Ayniqsa, multimodal integratsiya jarayonida matn, ikon, interfeys va audio elementlarning uyg‘unligi IT terminlarning kommunikativ samaradorligini sezilarli darajada oshiradi. Maqolada IT terminlar nafaqat leksik birlik sifatida, balki multimodal kommunikatsiya tizimining faol elementi sifatida talqin qilinadi.

**Kalit so‘zlar:** multimodal diskurs, IT terminlar, kommunikatsiya, funksional xususiyatlar, semiotika

**Kirish.** Zamonaviy axborotlashgan jamiyatda kommunikatsiya shakllari sezilarli darajada transformatsiyaga uchrab, til birliklarining qo‘llanish doirasi kengayib bormoqda. Ayniqsa, axborot texnologiyalarining jadal rivojlanishi natijasida yangi terminologik qatlam yuzaga kelib, u nafaqat ilmiy-texnik sohada, balki kundalik kommunikatsiyada ham faol qo‘llanilmoqda. Shu bilan birga, hozirgi davr kommunikatsiyasi faqat lingvistik vositalar bilan cheklanmay, balki turli semiotik resurslarning — vizual, audial va interaktiv elementlarning integratsiyasi asosida amalga oshirilmoqda. Mazkur jarayon multimodal diskurs tushunchasining shakllanishi va rivojlanishini taqozo etadi. Multimodal diskurs kommunikatsiyani matn, tasvir, interfeys va audio elementlarning o‘zaro uyg‘unligi sifatida talqin qiladi. Bu yondashuv ayniqsa IT terminlarning real kommunikativ muhitda qanday ishlashini tushunishda muhim nazariy asos bo‘lib xizmat qiladi. Mazkur maqolaning maqsadi — multimodal diskurs doirasida IT terminlarning lingvistik, funksional va kommunikativ xususiyatlarini kompleks tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot jarayonida diskursiv, qiyosiy hamda kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Ushbu tadqiqot natijalari

zamonaviy lingvistika, xususan, terminologiya va diskurs tahlili yoʻnalishlari uchun muhim ilmiy ahamiyat kasb etadi.

**Tadqiqot metodologiyasi.** Mazkur tadqiqotda multimodal diskurs doirasida IT terminlarning lingvistik va kommunikativ xususiyatlarini tahlil qilishda diskursiv, qiyosiy va kontekstual tahlil metodlaridan foydalanildi. Shuningdek, multimodal yondashuv asosida matn, vizual va audial komponentlarning oʻzaro integratsiyasi oʻrganildi.

Zamonaviy lingvistik tadqiqotlarda diskurs tushunchasi tobora kengayib, u faqat matn yoki nutq bilan cheklanib qolmay, balki turli semiotik vositalarning integratsiyasini ham oʻz ichiga oladigan murakkab kommunikativ hodisa sifatida talqin qilinmoqda. Ayniqsa, raqamli texnologiyalar rivoji bilan bir qatorda, insonlararo muloqot shakllari ham sezilarli darajada oʻzgardi va bu jarayon tilshunoslikda “multimodal diskurs” tushunchasining shakllanishiga olib keldi. Multimodal diskurs nazariyasining asosiy gʻoyalari Gunther Kress va Theo van Leeuwen tomonidan ishlab chiqilgan boʻlib, ular kommunikatsiyani faqat lingvistik birliklar orqali emas, balki vizual, audial va kinestetik vositalar orqali ham amalga oshiriladigan jarayon sifatida koʻrib chiqadilar. Ularning yondashuviga koʻra, har qanday diskurs bir nechta “mod” (mode)larning oʻzaro hamkorligi natijasida shakllanadi. Bu modlar orasida til (yozma va ogʻzaki shaklda), tasvirlar, grafik elementlar, ranglar, ovoz va hatto makoniy joylashuv ham muhim rol oʻynaydi. Mazkur nazariyada asosiy eʼtibor maʼno hosil qilish jarayoniga qaratiladi. Yaʼni, maʼno faqat soʻzlar orqali emas, balki turli semiotik tizimlarning uygʻunlashuvi orqali yaratiladi. Masalan, raqamli interfeysda biror tugma ustidagi yozuv (matn), uning rangi va shakli (vizual element), hamda bosilganda chiqadigan ovoz (audio signal) birgalikda yagona kommunikativ birlikni tashkil etadi. Shu bois multimodal diskursda har bir komponent alohida emas, balki umumiy tizimning tarkibiy qismi sifatida talqin qilinadi. Kress va van Leeuwen tomonidan ilgari surilgan ijtimoiy-semiotik yondashuvda multimodal ijtimoiy amaliyot bilan bevosita bogʻlanadi. Ular fikricha, insonlar turli kommunikativ vaziyatlarda maʼno yaratish uchun mavjud semiotik resurslardan tanlab foydalanadilar va bu tanlov madaniy, ijtimoiy hamda texnologik omillar bilan belgilanadi. Shu jihatdan, multimodal diskursni tahlil qilish nafaqat lingvistik, balki ijtimoiy-kontekstual tahlilni ham talab qiladi.

Raqamli muhitda multimodal diskurs ayniqsa yaqqol namoyon boʻladi. Veb-sahifalar, mobil ilovalar va ijtimoiy tarmoqlarda matn, tasvir, video va audio elementlar birgalikda ishlatiladi. Bunday integratsiya kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi, chunki foydalanuvchi maʼlumotni bir vaqtning oʻzida bir necha kanal orqali qabul qiladi. Natijada, axborotning tez yetkazilishi va oson anglashilishi taʼminlanadi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, multimodal diskurs nazariyasi nafaqat umumiy kommunikativ jarayonlarni, balki konkret terminologik birliklarning — xususan, IT

terminlarning ham funksional va semantik xususiyatlarini chuqurroq tahlil qilish imkonini beradi. Aynan shu sababli, quyida IT terminlarning lingvistik tabiati alohida ko‘rib chiqiladi.

**Natijalar.** IT terminlarning lingvistik xususiyatlari ularning faqat shakliy yoki semantik belgilarini emas, balki qanday kommunikativ vazifalarni bajarishini ham belgilaydi. Shu bois ularni funksional va kommunikativ nuqtai nazardan tahlil qilish zarur.

IT terminlarning lingvistik xususiyatlarini tahlil qilishda David Crystal tomonidan ilgari surilgan raqamli diskursga oid qarashlar muhim ahamiyat kasb etadi. Uning ta’kidlashicha, internet va texnologik muhit tilning ixchamlik, tezkorlik va universallik kabi xususiyatlarini kuchaytiradi. Bu esa terminlarning shaklan qisqa, semantik jihatdan aniq va ko‘pincha xalqaro xarakterga ega bo‘lishiga olib keladi. Masalan, *login*, *upload*, *interface* kabi birliklar turli tillarda deyarli o‘zgarmagan holda qo‘llanadi.

O‘zbek tilshunosligida ham IT terminologiyasi alohida tadqiqot obyekti sifatida qaralib, xususan, Nurtdinov tomonidan bu qatlamning asosiy belgilariga internatsionallik, anglicizmlar ustunligi hamda tez yangilanish (dinamiklik) xos ekani qayd etiladi. Darhaqiqat, IT terminlar ko‘pincha ingliz tilidan o‘zlashgan bo‘lib, ular global kommunikatsiya ehtiyojlari bilan bog‘liq holda milliy tillarda moslashadi yoki to‘g‘ridan-to‘g‘ri qabul qilinadi. Lingvistik nuqtai nazardan, IT terminlar quyidagi xususiyatlar bilan ajralib turadi: birinchidan, semantik ixchamlik, ya’ni murakkab tushunchani minimal shaklda ifodalash (masalan, *cloud* — butun boshli texnologik infratuzilmani bildiradi); ikkinchidan, strukturaviy soddalik va qisqartmalarning kengligi (*AI*, *UI*, *UX* kabi); uchinchidan, yuqori darajadagi standartlashuv, bu esa ularning global miqyosda bir xil tushunilishini ta’minlaydi. Shu bilan birga, IT terminlar faqat nominativ birlik emas, balki muayyan funksional va kommunikativ vazifalarni ham bajaradi. Ularning funksional xususiyatlari bir nechta asosiy yo‘nalishda namoyon bo‘ladi.

- 1) **Informativ funksiyasi** terminning asosiy vazifasi bo‘lib, u orqali aniq texnik ma’lumot uzatiladi. Masalan, *download* termini foydalanuvchiga ma’lum bir amalni bildiradi va bu amal barcha kontekstlarda deyarli bir xil talqin qilinadi.
- 2) **Kognitiv funksiyasi** terminlar orqali bilimni strukturalash va tushunchalarni tizimlashtirishda namoyon bo‘ladi. IT sohasidagi terminlar ko‘pincha foydalanuvchining texnologik tafakkurini shakllantiradi va murakkab jarayonlarni anglashga yordam beradi.
- 3) **Pragmatik funksiyasi** terminlarning foydalanuvchiga bevosita ta’sir ko‘rsatishi bilan bog‘liq. Masalan, *error* yoki *warning* kabi birliklar nafaqat ma’lumot beradi, balki foydalanuvchini ogohlantiradi, yo‘naltiradi yoki ma’lum harakatga undaydi.

Kommunikativ jihatdan esa IT terminlar zamonaviy diskursning interaktiv va global tabiatini aks ettiradi.

- 1) **Interaktivlik** xususiyati foydalanuvchi va tizim o‘rtasidagi bevosita muloqotda namoyon bo‘ladi, ya’ni terminlar harakatni boshlovchi signal vazifasini bajaradi (*click, send, submit*).
- 2) **Global tushunarlilik** esa IT terminlarning eng muhim xususiyatlaridan biri bo‘lib, ular til chegaralaridan chiqib, xalqaro kommunikatsiya vositasiga aylanadi. Bu holat ayniqsa ingliz tiliga asoslangan terminologiya orqali yaqqol ko‘rinadi.
- 3) **Kontekstga bog‘liqlik** ham muhim omil bo‘lib, ayrim terminlarning ma’nosi qo‘llanish muhitiga qarab aniqlanadi. Masalan, *window* yoki *platform* kabi birliklar umumtil ma’nosidan farqli ravishda IT diskursda maxsus semantik yuklama kasb etadi.

### 1-jadval.

#### IT terminlarning funksional va kommunikativ xususiyatlari (multimodal diskursda)

IT termin	Funksional jihat	Kommunikativ jihat	Multimodal ifoda
Login	informativ	interaktivlik	matn + tugma
Upload	kognitiv	global tushunarlilik	ikon + matn
Error	pragmatik	kontekstga bog‘liqlik	rang + signal + matn
Save	informativ/pragmatik	interaktivlik	ikon + tugma
Settings	kognitiv	global tushunarlilik	ikon + menyu

Jadvalda aks ettirilgan natijalar shuni ko‘rsatadiki, IT terminlar ko‘pincha alohida emas, balki turli semiotik vositalar bilan uyg‘unlashgan holda qo‘llanadi. Bu holat ularni multimodal diskurs doirasida yanada chuqurroq tahlil qilish zaruratini yuzaga keltiradi.

**Muhokama.** Raqamli kommunikatsiya muhitida axborot uzatish jarayoni tobora murakkablashib, birgina til birliklari orqali emas, balki turli semiotik resurslarning o‘zaro integratsiyasi orqali amalga oshirilmoqda. Shu nuqtai nazardan, multimodal diskursning eng muhim xususiyatlaridan biri — bu matn, ikon, interfeys va audio elementlarning funksional uyg‘unligidir. Aynan ushbu integratsiya IT terminlarning

real kommunikativ muhitda qanday ishlashini to‘liq anglash imkonini beradi. Multimodal integratsiya jarayonida har bir komponent mustaqil ma’no tashuvchi birlik bo‘lishi bilan birga, ular o‘zaro bog‘langan holda yagona kommunikativ tizimni tashkil etadi. Bu tizimda matn ko‘pincha asosiy semantik yadro vazifasini bajaradi, ikonlar esa ma’noni vizual jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi, interfeys esa bu birliklarning joylashuvi va tartibini belgilaydi, audio elementlar esa qo‘shimcha signal va ta’sir vositasi sifatida xizmat qiladi.

Avvalo, **matn** komponenti IT diskursning markaziy elementi bo‘lib, terminlarning asosiy semantik yuklamasini o‘zida mujassamlashtiradi. Masalan, *login*, *submit*, *error* kabi terminlar foydalanuvchiga aniq amal yoki holat haqida axborot beradi. Biroq bu terminlar ko‘pincha yakka holda emas, balki boshqa semiotik vositalar bilan birgalikda qo‘llanadi.

Shu o‘rinda **ikonlar** muhim rol o‘ynaydi. Ikonlar — bu vizual belgilar bo‘lib, ular til birliklarining ma’nosini tez va intuitiv tarzda anglash imkonini beradi. Masalan, “trash bin” (savatcha) belgisi *delete* amalini, “magnifying glass” esa *search* funksiyasini ifodalaydi. Ikonlarning afzalligi shundaki, ular tilga bog‘liq bo‘lmagan holda ham ma’no uzata oladi, bu esa global kommunikatsiyada katta ahamiyat kasb etadi.

Keyingi muhim komponent — bu **interfeys**dir. Interfeys multimodal elementlarning qanday joylashishini, qaysi tartibda taqdim etilishini va foydalanuvchi bilan qanday aloqaga kirishishini belgilaydi. Aynan interfeys orqali terminlar “harakatga aylanadi”, ya’ni ular passiv axborotdan faol kommunikativ vositaga o‘tadi. Masalan, *click*, *submit*, *upload* kabi terminlar interfeysda tugmalar shaklida berilib, foydalanuvchini muayyan amalni bajarishga undaydi. Shu sababli interfeysni multimodal diskursning tashkiliy va pragmatik markazi sifatida baholash mumkin.

Multimodal integratsiyaning yana bir muhim elementi — bu **audio komponent**dir. Raqamli tizimlarda ovoz signallari ko‘pincha ogohlantirish, tasdiqlash yoki e’tiborni jalb qilish vazifasini bajaradi. Masalan, xatolik yuzaga kelganda signal tovushi berilishi yoki yangi xabar kelganda bildirishnoma ovozi chiqishi kommunikativ jarayonni kuchaytiradi. Audio komponent foydalanuvchining e’tiborini tez jalb qilish va axborotni qo‘shimcha kanal orqali yetkazish imkonini beradi.

Muhim jihat shundaki, ushbu komponentlar alohida-alohida emas, balki integratsiyalashgan holda ishlaganda maksimal samaradorlikka erishiladi. Masalan, “error” xabari faqat matn orqali berilganda uning ta’siri cheklangan bo‘lishi mumkin, ammo u qizil rang, ogohlantiruvchi ikon va signal tovushi bilan birga berilganda foydalanuvchiga kuchliroq ta’sir ko‘rsatadi. Bu esa multimodal integratsiyaning pragmatik va kommunikativ kuchini yaqqol namoyon etadi. Shuningdek, multimodal integratsiya IT terminlarning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi. Terminlar nafaqat axborot beruvchi birlik, balki foydalanuvchini boshqaruvchi, yo‘naltiruvchi va

interaktiv muloqotni tashkil etuvchi vositaga aylanadi. Shu jihatdan, IT terminlar multimodal diskursda “faol element” sifatida namoyon bo‘lib, ular orqali inson va texnologiya o‘rtasidagi kommunikativ aloqalar amalga oshiriladi. Natijada, multimodal integratsiya nafaqat texnik dizayn elementi, balki lingvistik va kommunikativ hodisa sifatida ham muhim ahamiyat kasb etadi. U til birliklarining funksional yuklamasini kengaytiradi, ma’no yaratish jarayonini murakkablashtiradi va kommunikatsiyaning samaradorligini oshiradi. Shu sababli IT terminlarni chuqur tahlil qilishda ularni aynan multimodal kontekstda ko‘rib chiqish ilmiy jihatdan zarur hisoblanadi.

**Xulosa.** Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatdiki, IT terminlar zamonaviy multimodal diskursda ko‘p qatlamli lingvistik va kommunikativ xususiyatlarga ega bo‘lgan birliklar sifatida namoyon bo‘ladi. Ular nafaqat axborotni uzatish (informativ), balki bilimni shakllantirish (kognitiv) va foydalanuvchiga ta’sir ko‘rsatish (pragmatik) funksiyalarini ham bajaradi. Shuningdek, IT terminlarning kommunikativ xususiyatlari — interaktivlik, global tushunarlilik va kontekstga bog‘liqlik — ularning raqamli muhitdagi samaradorligini belgilovchi asosiy omillar sifatida aniqlanadi. Bu terminlar foydalanuvchi va texnologik tizim o‘rtasida bevosita muloqotni ta’minlovchi vosita sifatida xizmat qiladi. Ayniqsa, multimodal integratsiya jarayonida matn, ikon, interfeys va audio elementlarning uyg‘unligi IT terminlarning funksional imkoniyatlarini kengaytiradi hamda ularni faol kommunikativ birlikka aylantiradi. Natijada, IT terminlarni o‘rganishda multimodal yondashuvdan foydalanish ularning mohiyatini chuqurroq anglash imkonini beradi. Shu bois, IT terminlarni nafaqat leksik birlik sifatida, balki multimodal kommunikatsiya tizimining ajralmas komponenti sifatida tadqiq etish zamonaviy lingvistikaning dolzarb vazifalaridan biri hisoblanadi.

#### Foydalanilgan adabiyotlar

1. Gunther Kress G. *Multimodality: A Social Semiotic Approach to Contemporary Communication*. – London: Routledge, 2010. – 212 p.
2. Theo van Leeuwen T. *Multimodal Discourse: The Modes and Media of Contemporary Communication* / G. Kress, T. van Leeuwen. – London: Arnold, 2001. – 134 p.
3. David Crystal D. *Language and the Internet*. – 2nd ed. – Cambridge: Cambridge University Press, 2006. – 304 p.
4. Lemke J. L. *Multimedia Literacy Demands of the Scientific Curriculum // Linguistics and Education*. – 2002. – Vol. 10. – No. 3. – P. 247–271.
5. Fairclough N. *Critical Discourse Analysis: The Critical Study of Language*. – London: Longman, 1995. – 265 p.
6. van Dijk T. A. *Discourse and Context: A Sociocognitive Approach*. – Cambridge: Cambridge University Press, 2008. – 267 p.

7. Абдуазизов А. А. Тилшунослик назарияси асослари. – Тошкент: Ўқитувчи, 2010. – 256 б.
8. Маҳмудов Н. М. Лингвокультурология асослари. – Тошкент: Фан, 2012. – 220 б.
9. Сафаров Ш. Когнитив тилшунослик. – Тошкент: Фан, 2006. – 198 б.
10. Nurtdinov M. Axborot texnologiyalari terminologiyasi va uning lingvistik xususiyatlari. – Toshkent, 2021.

